

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI O'QUVCHILAR BILAN
INDIVIDUAL ISHLASH

Hasanova Dilafro'zxon Tohir qizi

Guliston davlat pedagogika insituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10335361>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar bilan individual ishlash va dars jarayonida samarali ta'lim o'yinlaridan foydalanishning jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Individual, individual yondashish, treningni individuallashtirish, ijodiy rolli o'yinlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar.

FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS WORK WITH STUDENTS INDIVIDUALLY

Abstract. This article talks about the aspects of individual work with students and the use of effective educational games in the course of the lesson in the primary classes of general secondary schools.

Key words: Individual, individual approach, individualization of training, creative role-playing games, methods of developing critical thinking.

БУДУЩЕЕ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ РАБОТАЮТ С УЧАЩИМИСЯ
ИНДИВИДУАЛЬНО

Аннотация. В данной статье говорится об аспектах индивидуальной работы с учащимися и использовании эффективных обучающих игр в ходе урока в начальных классах общеобразовательной школы.

Ключевые слова: Индивидуализм, индивидуальный подход, индивидуализация обучения, творческие ролевые игры, методы развития критического мышления.

Zamonaviy ta'lim jarayonining faol sub'yektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu doirasida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Ertangi kuniga befarq bo'lmagan, yorug' va farovon kelajakni yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa o'quvchi dunyoqarashi, tafakkur doirasi shunchalik takomillashadi va rivojlanadi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limga qo'yilayotgan davlat talablariga muvofiq, o'quv-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi hamda javobgarligini his

etadigan shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni va undan ko'zlangan maqsad ham yuqoridagi dolzarb vazifalarning amaliy yechimida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarkib topgan ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan va u hozirda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl uslub va vositalari pedagogikada ta'lim jarayonlarini tahlil etishda qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar hisoblanadi. Aynan o'sha kategoriyalar ma'lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalar maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik va o'quv faoliyatining qonuniyat hamda mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Ma'lumki, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlash –zamonaviy o'quv jarayonida jadallashib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tahsil oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini taminlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir.

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagogtahsil oluvchilar bilan yakka-yakka shug'ullanadi, tahsil oluvchi o'quv vositalari(kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi. Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogningtahsil oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi. Individuallashtirilgan o'qitish maqsadi - bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi. Individual o'qitish texnologiyasining afzalligi – pedagogik jarayonning o'quvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda o'quvchini bilim olish darajasining doimiy monitoringi amalga oshiriladi, zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi va o'ziga xos individual yondashuvga amal qilinadi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yuqoridagi kabi ta'limiy texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarni nafaqat mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni, balki darsda faol ishtirok etish, diqqatni jamlash, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish, shuningdek o'zgalar fikrini hurmat qilish va tinglash kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Bu borada o'qituvchi har bir darsga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi, iqtidor va iste'dodni rag'batlantirish hamda aql-zakovotini ayamasliklari lozim. Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit", degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva. –T.: Chopon NMIU, 2012. 90-bet.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. 168-bet.
4. Qizi K. S. S. FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 43-45.
5. Mamatova , . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Modern Science and Research, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>

MODERN SCIENCE
& RESEARCH